



UDK:159.9

Mirzoxid SOLIYEV,
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: soliyevmirzixid9320@gmail.com

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

THE PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING READING TRAITS IN CHILDREN: INTERNATIONAL AND NATIONAL APPROACHES

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the psychological, pedagogical, and social factors influencing the development and enhancement of reading traits in children. Special attention is paid to international research that emphasizes the positive impact of reading on children's thinking, emotional development, and social adaptability. Furthermore, the views of Uzbek pedagogues and psychologists are examined, and similarities and differences between national and global approaches are scientifically compared. Based on the findings, practical scientific recommendations are proposed for promoting reading traits among children.

Key words: Primary school age, reading skills, learning activity, motivation, psychological development, logical thinking, age-specific characteristics, empathy, social development, cognitive and emotional development.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье проводится углублённый анализ психологических, педагогических и социальных факторов, влияющих на формирование и развитие читательских навыков у детей. Особое внимание уделяется зарубежным исследованиям, в которых чтение рассматривается как важный инструмент развития мышления, эмоциональной сферы и социальной адаптивности ребёнка. Также анализируются научные подходы узбекских педагогов и психологов, проводится сравнительный анализ общих и отличительных черт национальных и международных взглядов. По итогам исследования предлагаются практические научные рекомендации по стимулированию читательской активности у детей.

Ключевые слова: Младший школьный возраст, читательские навыки, учебная деятельность, мотивация, психическое развитие, логическое мышление, возрастные особенности, эмпатия, социальность.

BOLALARDA KITOBXONLIK XUSUSIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI: XALQARO VA MILLIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy omillar chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, xorijiy ilmiy adabiyotlarda kitobxonlikning bola tafakkuri, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri bilan bog'liq yondashuvlar yoritiladi. Shu bilan birga, o'zbek pedagog va psixologlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar tahlil qilinib, milliy va xalqaro yondashuvlar o'rtasidagi umumiylik va tafovutlar ilmiy asosda solishtiriladi. Tadqiqot yakunida bolalarda kitobxonlikni rivojlantirishga oid samarali ilmiy-amaliy yo'nalishlar va takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, kitobxonlik, o'quv faoliyati, motivatsiya, psixik rivojlanish, mantiqiy fikrlash, yosh xususiyatlari, empatiya, ijtimoiy rivojlanish, kognitiv va emotsional rivojlanish.

Kirish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim va psixologiya sohasida dolzarb ilmiy masala sifatida e'tirof etiladi. Kitob o'qish jarayoni nafaqat bolalarning bilim va dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularning tafakkur madaniyati, nutq salohiyati, tasavvur, emotsional sezgirlik va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim psixologik-pedagogik vosita hisoblanadi. Erta bosqichda rivojlangan kitobxonlik madaniyati esa o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabati, shaxsiy o'sishi va ijtimoiy faolligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Kichik maktab yoshi (7–11 yosh) bolaning psixik rivojlanishidagi muhim senzitiv davrdir. Bu bosqichda asab tizimi barqarorlashadi, ongli bilim olish

ehtiyoji kuchayadi, maktab darslari orqali mantiqiy fikrlash, mustaqil o'rganish va axborot bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Xotira, diqqat, tasavvur, emotsional idrok va muloqot malakalari jadal rivojlanib, kitob o'qish jarayoni orqali yanada mustahkamlanadi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy xalqaro ilmiy-amaliy manbalarda kitobxonlik tushunchasiga keng qamrovli yondashuv kuzatiladi. Xususan, UNESCO kitobxonlikni insonning yozma va bosma matnlarni o'qish, tushunish, izohlash, yaratish, ifodalash va ulardan turli kontekstlarda foydalanish qobiliyati sifatida talqin etadi. Bu malaka shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, jamiyatda faol ishtirok etishi va umrbod ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi [2].

Amerikalik olim K.E. Stanovich kitobxonlikni inson tafakkurining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi vosita deb hisoblab, uni "bilimning akkumulyatori" sifatida baholaydi. Uning fikricha, kitob o'qish orqali inson yangi tushunchalar bilan tanishadi, ularni mavjud bilimlari bilan bog'laydi va shaxsiy bilimlar tizimini kengaytiradi [3].

Kitobxonlik bo'yicha o'zbek olimlaridan N.G'.Jo'rayev "Kitobxonlik — bu o'quvchining o'qilgan matndan axborot olish, uni anglash va mustaqil xulosa chiqarish asosida fikr yuritish olish faoliyatidir" deb fikr bildirib, kitobxonlikni mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir o'zbek olimasi Z.T.Nishanova esa "Kitobxonlik — bolalarning emotsional-tafakkuriy faoliyatini harakatga keltiruvchi, ularning ijodiy fikrlashi, fantaziyasi va ruhiy dunyosini boyitishga xizmat qiluvchi omildir" deb ta'rib bergan, ya'ni yuqoridagi olimlarning fikrlaridan farqli ravishda kitobxonlikni ijodiy fikrlash va ruhiy o'sishga sabab bo'ladigan psixologik omil sifatida baholagan [4, 5].

Xalqaro miqyosda kitobxonlik nafaqat savodxonlikni rivojlantirish, balki barkamol shaxsni tarbiyalashning integrativ omili sifatida qaralmoqda. OECD tomonidan o'tkazilgan PISA tadqiqotlari o'qish savodxonligi yuqori bo'lgan davlatlarda ta'lim sifati bilan birga yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va shaxslararo munosabatlari ham yuqori ekanini ko'rsatgan. O'qishga ijobiy munosabat esa bolalarda empatiya, hamdardlik va muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6].

Zigmund Freyd asos solgan psixoanaliz yo'nalishi kitobxonlikni bolaning ongli va ongsiz psixologik jarayonlari bilan bog'laydi. Freyd nazariyasiga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonlik orqali ichki emotsional konfliktlarini, masalan, qo'rquv yoki xavotirni ramziy tarzda ifodalaydi, bu esa psixologik barqarorlikka xizmat qiladi [7]. Freydning shogirdi Karl Yung analitik psixologiyada kitobxonlikni bolaning o'z-o'zini anglash jarayonining muhim elementi deb hisoblab, ertaklar va afsonalardagi arxetiplar bolalarda shaxsiy o'ziga xoslik va maqsadlilikni shakllantirishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi [8]. Neopsixoanalitik Karen Xorni kitobxonlikni bolaning ijtimoiy muhitga moslashishi va o'zini qabul qilishi jarayonida muhim vosita sifatida ko'radi, chunki o'qish bolalarda ichki xavfsizlik va o'ziga ishonch hissini rivojlantiradi [9].

Xorijiy tadqiqotlarda, masalan, Bruno Bettelxaym (1976) o'zining "The Uses of Enchantment" asarida ertaklar orqali kitobxonlik bolalarda psixologik konfliktlarni hal qilishga yordam beradi, deb yozadi. U kichik maktab yoshi bolalarning ertaklar orqali o'zlarining ongsiz qo'rquvlarini engib o'tishini va emotsional muvozanatni topishini ta'kidlaydi [10].

Shu bilan birga, so'nggi tadqiqotlarda Nikolopulu va boshqalar (2015) psixoanalitik yondashuvga asoslanib, kitobxonlikning bolalarda emotsional regulyatsiya va ichki dunyoning ramziy ifodalanishini rivojlantirishini tasdiqlaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hikoyalar orqali bolalar o'zlarining ijtimoiy va psixologik tajribalarini tushunish va ifodalash qobiliyatini oshiradi [11].

Xorijiy tadqiqotlarda Piaje (1969) geshtalt tamoyillariga asoslanib, kitobxonlikning kichik maktab yoshi bolalarda mantiqiy operatsiyalar va tasviriy tafakkurni rivojlantirishini ta'kidlaydi. U o'qish jarayonida bolaning yaxlit idrok qilish qobiliyati hikoyaning mazmunini tushunishda muhim rol o'ynaydi, deb

hisoblaydi. So'nggi tadqiqotlarda, masalan, Mar va Oatley (2008) geshtalt psixologiyasi asosida kitobxonlikning bolalarda narrativ tushunish va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydi ki, kichik maktab yoshi bolalar hikoyalar orqali kompleks tasavvurlarni shakllantirib, o'zlarining kognitiv moslashuvchanligini oshiradi [12].

O'zbekistonlik, shu jumladan, Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodi, o'quvchilarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirishda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu mutafakkirlar o'z davrida ilmga, kitobga, o'qishga bo'lgan yondashuv bilan zamonaviy metodik qarashlarga mustahkam poydevor bo'la oldilar. Bugungi kunda ularning fikrlari zamonaviy pedagogik, psixologik tadqiqotlar bilan uyg'unlashgan holda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida ilm-fan va kitobning inson kamolotidagi o'rini juda yuqori baholagan. Uning fikricha, kitob va ilm insonni nafaqat dunyoviy bilimlarga, balki ma'naviy mukammallikka olib boradi. Forobiyning "Aqliy fazilatlar haqida" asarida kitobxonlikning inson tafakkuri va aqliy rivojlanishidagi o'rni aniq ko'rsatilgan. Kitob o'qish, uning fikricha, nafaqat ma'lumot olishning, balki ongni tarbiyalashning ham muhim vositasidir.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston", "Osor ul-boqiya" kabi asarlarida kitob o'qishning nafaqat ilmiy bilimlarni o'rganish, balki boshqa xalqlarning madaniyatini, tarixini va ilm-fanini chuqur tahlil qilishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Beruniy kitobni inson tafakkurini kengaytirish, uni tanqidiy va izlanishli fikrlashga undovchi asosiy vosita sifatida ko'rgan. Uning fikricha, kitob o'qishning o'zi bilim olish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayon insonni tanqidiy fikr yuritishga, o'rganilayotgan materialni baholashga, uning ichki mohiyatini ochib berishga undaydi.

Ibn Sino nafaqat tibbiyot sohasida, balki pedagogika va psixologiya ilmidan ham beqiyos iz qoldirgan buyuk mutafakkir va olimdir. U o'zining "Donishnoma" va "Kitob ush-shifo" kabi asarlarida kitobning inson ruhiy va jismoniy salomatligiga ta'sirini alohida ta'kidlagan. Ibn Sino uchun kitob nafaqat bilim olish, balki insonning psixologik va jismoniy holatini yaxshilashda muhim vosita hisoblangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning fikrlash jarayonini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, bola bilimni faol o'zlashtiradi, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda tajriba asosida anglaydi. Shu nuqtai nazardan, kitobxonlik bolaning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Piaje nazariyasida har bir kognitiv bosqichga mos kitoblar mavjud: preoperatsion bosqichda ertak va tasvirli kitoblar simvolik fikrlashni, konkret bosqichda hikoyalar sababli tafakkurni, formal bosqichda esa abstrakt va nazariy fikrlashni rivojlantiradi. Kitobxonlik orqali bola mustaqil izlanadi, mulohaza yuritadi, o'z pozitsiyasini shakllantiradi va Piaje ta'riflagan assimilyatsiya hamda akkomodatsiya mexanizmlari asosida bilimlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, kitob o'qish bola ijtimoiy va madaniy jihatdan ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Har bir asar orqali bola empatiya, qadriyatlar va madaniy identitetni anglash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Lev S. Vygotskiy bola rivojlanishini ijtimoiy va madaniy kontekstdan ajralmas jarayon sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, tafakkurning shakllanishida ijtimoiy muhit, til va madaniyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Vygotskiy fikricha, bola bilimni mustaqil emas, balki ijtimoiy aloqalar orqali, interaktiv tarzda egallaydi. Kitobxonlik esa bu jarayonning muhim komponenti bo'lib, muloqot, izoh va fikr almashish orqali bola kognitiv rivojlanadi.

Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" (YRZ) konsepsiyasida bola kattalar yoki tengdoshlar yordami bilan yuqoriroq darajadagi bilimlarni egallaydi. Kitob o'qish jarayonida tushunilmagan mazmunni izohlash va tahlil qilish aynan shu zonani faollashtiradi.

U tilni kognitiv rivojlanish vositasi deb hisoblab, kitobxonlikni ichki nutqni shakllantiruvchi muhim manba sifatida ta'riflagan. Unga ko'ra, bola avval tashqi nutq orqali fikr bildiradi, keyinchalik esa bu ichki mulohazaga aylanadi. Aynan kitob o'qish bu jarayonni tezlashtiradi.

Vygotskiy yondashuvi asosida interaktiv kitobxonlik metodikalari shakllangan bo'lib, ular bolalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda qo'llaniladi. Kitobxonlik bu nazariyada individual emas, balki bola va uning ijtimoiy-madaniy muhiti o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir sifatida qoraladi.

Amerikalik tadqiqotchilar Ann Kanningem va Kit Stenovichning tadqiqotlari kitob o'qishning bolalar intellektual rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritib beradi. Ularning fikricha, kitobxonlik bola til boyligini, tushunchaviy tafakkurini va mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, umumiy bilim salohiyatini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob o'qish bolaning so'z boyligini ko'paytiradi, matnni anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Muntazam o'qishga jalb etilgan bolalarda nafaqat akademik muvaffaqiyat darajasi yuqori bo'ladi, balki tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish salohiyati ham kuchliroq bo'ladi.

Kitobxonlikka quyidagi ichki va tashqi psixologik omillar ta'sir etadi:

O'quv motivatsiyasi (Luskanova metodikasi orqali o'lchanadi)

Qiziqish va hissiy rezonans (Barodina metodikasi)

Oiladagi axborot muhiti

O'qituvchining individual yondashuvi

Kitob tanlash erkinligi

Bundan tashqari, Z. Nishonova va L. Subbotina kabi olimlar tomonidan taklif etilgan ijodiy testlar orqali bolalarning matnga bo'lgan ijodiy yondashuvi aniqlanadi. Bu testlar bolalarning fikr erkinligi, tasavvuri va estetik qabul qilish darajasini o'lchash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Xorijiy tadqiqotlar kitobxonlikning kognitiv rivojlanishga ta'sirini keng o'rgangan. Ann E. Kanningem va K.E. Stanovichning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, muntazam kitob o'qigan bolalarda so'z boyligi, o'qishni tushunish qobiliyati va umumiy intellektual rivojlanish sezilarli darajada yuqori bo'ladi [13] Rayan va Dasi tomonidan 1997-yilda o'tkazilgan longitudinal tadqiqotda erta yoshda kitob o'qigan bolalar 10 yil o'tib, o'qish qobiliyati va akademik yutuqlarda tengdoshlaridan ustun bo'lgani aniqlangan. Tadqiqot kitobxonlikning kognitiv rivojlanishga uzluksiz va kuchayib boruvchi ta'sirini ko'rsatdi. Jumladan, 6 yoshda kitobxonlikni boshlagan bolalarning 16 yoshda IQ darajasi o'rtacha 10 ballga yuqori bo'lgan. Bu natija

kitobxonlikning bolalar intellektual rivojlanishidagi uzoq muddatli ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar kitobxonlikning miya faoliyatiga ta'sirini ham o'rgangan. Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob o'qish miyaning prefrontal korteksini faollashtiradi, bu esa qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi [14]. Prefrontal korteks yuqori darajadagi kognitiv funksiyalar — diqqat, rejalashtirish, o'rganish va qaror qabul qilish uchun mas'ul miya sohasidir. Kitob o'qish bu hududni faollashtirib, bolalarga murakkab vaziyatlarga moslashish va muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Shuningdek, hikoyalarni tahlil qilish orqali tasavvur, sabab-oqibatni tushunish va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

So'nggi 30 yilda Rossiyalik psixologlar kitobxonlikni bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida o'rganib kelmoqda. Jumladan, Anna Matveeva kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishning kognitiv jarayonlarga ta'sirini tadqiq qilgan. Uning 2001-yilgi dissertatsiyasi "O'qish kichik maktab yoshi bolalarning kognitiv rivojlanish omili sifatida" nomi bilan tanilgan. U muntazam o'qish xotira, diqqat, mantiqiy tafakkur va narrativ tushunishni rivojlantirishini aniqlagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik semantik xotirani mustahkamlab, kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi [15].

A.X. Xo'jayev 1960–1970-yillardagi tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishning psixologik asoslarini chuqur tahlil qilgan. Unga ko'ra, o'qish faqat savodxonlikni emas, balki bolalarning tafakkuri, diqqatini jamlash va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Olim kitobxonlik orqali ona tiliga ijobiy munosabat, milliy qadriyatlarga hurmat va adabiy tafakkurni shakllantirish zarurligini asoslab bergan [16].

Tadqiqotchi N.D. Karimova o'zining ilmiy izlanishlarida maktab muhitida kitobxonlikni targ'ib etishga qaratilgan maxsus dasturlar, xususan, "kitobxonlik soatlari"ning samaradorligini empirik jihatdan o'rgangan. Unga ko'ra, bu soatlar joriy etilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi va o'quv faolligi 30% ga oshgan bo'lib, bu ta'lim sifatiga va intellektual rivojlanishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan [17].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirish ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, bu jarayonda kognitiv salohiyat, emotsional kechinmalar, ichki motivatsiya va ijtimoiy muhit o'zaro uyg'unlikda ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bolalarning kitobga bo'lgan munosabati ularning tafakkur, diqqat, xotira va estetik idrok darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga tadqiqotimiz dairasida o'rganilgan adabiyotlar, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Psixopedagogik yondashuvni kuchaytirish: Kitobxonlikni rivojlantirishda kognitiv, emotsional va motivatsion omillarni uyg'un qo'llash zarur.

Psixodiagnostik monitoring joriy etish: O'quvchilarning kitobxonlik darajasini aniqlovchi testlar asosida muntazam tahlil olib borish tavsiya etiladi.

Jinsiy va yosh xususiyatlariga mos yondashuv: O'g'il bolalar uchun sarguzasht va vizual adabiyotlar

asosida qiziqishni oshiruvchi metodlar ishlab chiqish kerak.

Ota-ona va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma: Uyda va maktabda kitobxonlik muhitini yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish: Interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan vositalar orqali bolalarni kitobga yo'naltirish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press
2. UNESCO. (2006). *Education for All Global Monitoring Report: Literacy for Life*. – Paris: UNESCO Publishing. – 450 p.
3. Stanovich, K. E. (2000). *Progress in Understanding Reading: Scientific Foundations and New Frontiers*. – New York: Guilford Press. – 336 p
4. Jo'rayev, N. G'. (2010). *Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
5. Nishonova, Z. T. (2018). Kitobxonlik faoliyati orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional-ijodiy rivojlanishini ta'minlash. Ilmiy maqola. — Ta'lim va rivojlanish psixologiyasi jurnali, 4-son.
6. OECD. (2019). *PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do*. Paris: OECD Publishing
7. Freud, S. (1920). *A General Introduction to Psychoanalysis*. New York: Boni & Liveright
8. Jung, C. G. (1964). *Man and His Symbols*. New York: Doubleday.
9. Horney, K. (1945). *Our Inner Conflicts: A Constructive Theory of Neurosis*. New York: W.W. Norton & Company.
10. Bettelheim, B. (1976). *The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales*. New York: Knopf.
11. Nicolopoulou, A., Cortina, K. S., Ilgaz, H., Cates, C. B., & de Sá, A. B. (2015). Using a narrative- and play-based activity to promote low-income preschoolers' oral language, emergent literacy, and social competence. *Early Childhood Research Quarterly*, 31, 147–162
12. Mar, R. A., & Oatley, K. (2008). The function of fiction is the abstraction and simulation of social experience. *Perspectives on Psychological Science*, 3(3), 173–192.
13. Kunningham, A. E., & Stanovich, K. E. (1997). Early Reading Acquisition and Its Relation to Reading Experience and Ability 10 Years Later. *Developmental Psychology*, 33(6), 934-945.
14. Berns, G. S., et al. (2013). Short- and Long-Term Effects of a Novel on Connectivity in the Brain. *Brain Connectivity*, 3(6), 590-600.
15. Matveeva, A. V. (2001). Чтение как фактор когнитивного развития младших школьников [O'qish kichik maktab yoshi bolalarning kognitiv rivojlanish omili sifatida]. Dissertatsiya, Rossiya Psixologiya Instituti, Moskva.
16. Xo'jayev, A. X. (1967). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish malakasini shakllantirish*. Toshkent: O'qituvchi.
17. Karimova, D. (2017). Kitobxonlik soatlari va uning samarasi. *Psixologiya va Pedagogika*, 3(10), 56-62